



**SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA GUVOHNING
ISHTIROKI, EKSPERTIZA, MUTAXASSISNI JALB ETISH
MASALALARI**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi

universiteti "Iqtisodiy fanlar" kafedrası

katta o'qituvchisi i.f.b.f.d (Phd)

Usmonov Shavkatjon Shukurovich.

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq nazoratini amalga oshirish jarayonida protsessual ishtirokchilarning o'rnini va ahamiyati yoritiladi. Xususan, guvohning ishtiroki, ekspertiza tayinlash va o'tkazish tartibi, mutaxassisni jalb etish asoslari, shuningdek tarjimon hamda holislarning qatnashuvi bilan bog'liq huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari, ularni jalb etishning protsessual asoslari hamda soliq organlari faoliyatida dalillarni to'plash, mustahkamlash va baholashdagi roli ochib beriladi. Maqolada soliq tekshiruvlari jarayonida xolislik, qonuniylik va shaffoflikni ta'minlashda guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va holislarning ishtiroki muhim kafolat sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ularning protsessual maqomi amaldagi soliq qonunchiligi normalari asosida tahlil qilinib, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: soliq nazorati, soliq tekshiruvi, protsessual ishtirokchilar, guvoh, ekspertiza, ekspert xulosasi, mutaxassis, tarjimon, holislar, dalillarni to'plash, dalillarni baholash, protsessual kafolatlar, qonuniylik, xolislik, soliq organlari, soliq to'lovchi huquqlari.



УЧАСТИЕ СВИДЕТЕЛЕЙ, ЭКСПЕРТИЗА, ПРИВЛЕЧЕНИЕ ЭКСПЕРТОВ, УЧАСТИЕ ПЕРЕВОДЧИКОВ И СВИДЕТЕЛЕЙ В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение процессуальных участников в осуществлении налогового контроля. В частности, анализируются правовые механизмы, связанные с участием свидетелей, порядок назначения и проведения проверки, основания для привлечения специалистов, а также участие переводчиков и очевидцев. Исследование выявляет права и обязанности этих участников, процессуальные основания для их привлечения и их роль в сборе, укреплении и оценке доказательств в деятельности налоговых органов. В статье признается участие свидетелей, экспертов, специалистов, переводчиков и очевидцев важной гарантией обеспечения беспристрастности, законности и прозрачности в процессе налоговых проверок. Кроме того, анализируется их процессуальный статус на основе действующего налогового законодательства, и выдвигаются предложения по проблемам, возникающим на практике, и способам их устранения.

Ключевые слова: налоговый контроль, налоговая проверка, участники процесса, свидетель, допрос, экспертное заключение, специалист, переводчик, очевидцы, сбор доказательств, оценка доказательств, процессуальные гарантии, законность, беспристрастность, налоговые органы, права налогоплательщиков.

PARTICIPATION OF WITNESSES, EXPERTISE, INVOLVEMENT OF EXPERTS, PARTICIPATION OF TRANSLATORS AND EYE- WITNESSES IN THE IMPLEMENTATION OF TAX CONTROL.



Abstract: This article discusses the role and importance of procedural participants in the implementation of tax control. In particular, the legal mechanisms related to the participation of witnesses, the procedure for appointing and conducting an examination, the grounds for involving specialists, as well as the participation of translators and eye-witnesses are analyzed. The study reveals the rights and obligations of these participants, the procedural grounds for their involvement, and their role in collecting, strengthening and evaluating evidence in the activities of tax authorities. The article recognizes the participation of witnesses, experts, specialists, translators and eye-witnesses as an important guarantee in ensuring impartiality, legality and transparency in the process of tax audits. Also, their procedural status is analyzed based on the current tax legislation, and proposals are put forward on problems encountered in practice and ways to eliminate them.

Keywords: tax control, tax audit, procedural participants, witness, examination, expert opinion, specialist, translator, eyewitnesses, collection of evidence, assessment of evidence, procedural guarantees, legality, impartiality, tax authorities, taxpayer rights.

KIRISH.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tizimi muhim o‘rin tutadi. Soliqlarning to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini ta‘minlash esa samarali soliq nazorati mexanizmlariga bevosita bog‘liqdir. Soliq nazorati nafaqat fiskal manfaatlarni himoya qilish, balki soliq to‘lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga ham xizmat qilishi lozim. Shu bois mazkur jarayon aniq protsessual qoidalar asosida, shaffof va xolis tarzda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq nazoratini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatda soliq organlarining vakolatlari, soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi hamda tekshiruv jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yilgan.



Xususan, soliq tekshiruvlari davomida guvohlarning ko'rsatmalari, ekspert xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari, tarjimon xizmatlari hamda holislarning ishtiroki muhim protsessual ahamiyatga ega.

Soliq tekshiruvi jarayonida dalillarni to'plash, mustahkamlash va baholashda protsessual ishtirokchilarning o'rni beqiyosdir. Guvoh tekshiruv uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar yuzasidan ma'lumot beradi, ekspert maxsus bilim talab etiladigan masalalar bo'yicha xulosa taqdim etadi, mutaxassis esa texnik va amaliy ko'mak ko'rsatadi. Tarjimon til bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etsa, holislar protsessual harakatlarning xolis va shaffof o'tkazilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega biror-bir holatlar o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday voyaga etgan jismoniy shaxs ko'rsatmalar berish uchun guvoh sifatida chaqirilishi mumkin [1].

Guvohning ko'rsatmalari bayonnomaga kiritiladi.

Guvoh sifatida quyidagi shaxslar jalb etilishi mumkin emas:

o'zining jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni to'g'ri idrok etishga qodir bo'lmagan shaxslar;

o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan soliq nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan va ushbu shaxslarning kasbiy siriga taalluqli bo'lgan axborotni olgan shaxslar. Chunonchi, bunday shaxslar jumlasiga - advokat, auditor, soliq maslahatchisi kiradi.

Guvohning ko'rsatmalari, agar u kasalligi, keksaligi, nogironligi tufayli soliq organiga kela olmasa, u turgan joyda olinishi mumkin [2].

Ko'rsatmalar olishdan avval soliq organining mansabdor shaxsi guvohni ko'rsatmalar berishni rad etganlik yoki bundan bosh tortganlik yoxud bila turib yolg'on ko'rsatmalar berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi, bu haqda bayonnomaga guvohning imzosi bilan tasdiqlanadigan belgi kiritiladi.



Soliq organiga guvoh sifatida chaqirilgan xodimlar uchun soliq organiga kelganligi sababli ishda bo'lmagan vaqt uchun asosiy ish joyidagi oylik ish haqi saqlanib qoladi.

Tarjimonning ishtiroki - Zarur bo'lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun tarjimon jalb etilishi mumkin.

Ishning natijasidan manfaatdor bo'lmagan, tarjima qilish uchun zarur darajada til biladigan yoki kar yoxud soqov jismoniy shaxsning imo-ishoralarini tushunadigan shaxs tarjimonlik qilishi mumkin.

Shaxsning tarjimon sifatida jalb qilinishi soliq organi va tarjimon o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tarjimon soliq organi mansabdor shaxsining chaqiruviga binoan kelishi va o'ziga topshirilgan tarjimani aniq bajarishi shart.

Xolislarning ishtiroki - soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun holislar jalb etiladi[3].

Xolislar kamida ikki nafar kishi miqdorida jalb etiladi.

Ishning natijasidan manfaatdor bo'lmagan har qanday voyaga etgan jismoniy shaxslar holislar sifatida jalb etilishi mumkin.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining holislar sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xolislar o'z ishtirokida amalga oshirilgan harakatlar fakti, mazmuni va natijalarini bayonnomada tasdiqlashi shart. Ular amalga oshirilgan harakatlar yuzasidan bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan fikr-mulohazalar bildirishga haqli. Zarur bo'lgan taqdirda, holislar ko'rsatilgan holatlar yuzasidan so'roq qilinishi mumkin.

Mutaxassisni jalb etish - Zarur bo'lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun soliq organi tomonidan maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan hamda ishning natijasidan manfaatdor bo'lmagan mutaxassis jalb etilishi mumkin[4].



Shaxsning mutaxassis sifatida jalb qilinishi soliq organi va mutaxassis o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida ishtirok etishi uning guvoh sifatida aynan shu holatlar yuzasidan so'roq qilinishi imkoniyatini istisno etmaydi.

Ekspertiza - Zarur bo'lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir aniq harakatlarni o'tkazishda ishtirok etish uchun ekspert jalb etilishi mumkin.

Ekspert sifatida davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, boshqa korxona, muassasa, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Shaxsni ekspert sifatida jalb etish soliq organi va ekspert o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish uchun ilm-fan, san'at, texnika yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlar talab etilsa, ekspertiza tayinlanadi. Soliq organining soliq nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxsida bunday bilimlarga egaligi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi.

Ekspert oldida qo'yilgan masalalar va uning xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chiqishi mumkin emas.

Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorni soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxsning iltimosnomasi asosida soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) qabul qiladi.

Qarorda ekspertizani tayinlash uchun asoslar, ekspertiza o'tkazishi kerak bo'lgan tashkilotning nomi yoki ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi, ekspertning oldiga qo'yiladigan masalalar va uning ixtiyoriga beriladigan materiallar ko'rsatiladi. Ekspert ekspertiza predmetiga taalluqli tekshiruv materiallari bilan tanishishga, o'ziga qo'shimcha materiallar taqdim etilishi to'g'risida iltimosnomalar berishga haqli.

Ekspert xulosani o'z nomidan yozma shaklda beradi. Ekspert xulosasida o'zi o'tkazgan tekshirishlar, ular asosida qilingan xulosalar hamda qo'yilgan masalalarga asoslantirilgan javoblar bayon etiladi. Agar ekspertga berilgan materiallar etarli



bo'lsa yoki u ekspertiza o'tkazish uchun zarur bilimlarga ega bo'lsa, ekspert xulosa berishni rad etishi mumkin. Soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organining mansabdor shaxsi tekshirilayotgan shaxsni ekspertiza tayinlanganligi to'g'risidagi qaror bilan tanishtirishi va nazarda tutilgan huquqlarini tushuntirishi shart bo'lib, bu haqda bayonnoma tuziladi[5], [6], [7].

Ekspertiza tayinlash va o'tkazish jarayonida tekshirilayotgan shaxs:

- 1) ekspertni rad etish;
- 2) ekspertni o'zi ko'rsatgan shaxslar orasidan tayinlash to'g'risida iltimos qilish;
- 3) qo'shimcha savollarni taqdim etib, ular yuzasidan ekspert xulosasini olish;
- 4) soliq organi mansabdor shaxsining ruxsati bilan ekspertiza o'tkazishda ishtirok etish va ekspertga tushuntirishlar berish;
- 5) ekspertning xulosasi bilan tanishish;
- 6) ekspertning xulosasi yuzasidan asoslantirilgan fikr taqdim etish huquqiga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliq nazoratini amalga oshirish jarayonida guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va holislarning ishtirokini o'rganishda umumilmiy va maxsus yuridik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, ilmiy manbalarni o'rganish hamda huquqni qo'llash amaliyotini umumlashtirish tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi normalari tahlil qilinib, soliq nazorati jarayonida protsessual ishtirokchilarning huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlari hamda jalb etish tartibi o'rganildi. Shuningdek, soliq tekshiruvlariga oid qonunosti hujjatlari va idoraviy me'yoriy hujjatlar mazmunan tahlil qilindi.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, soliq nazoratini amalga oshirish jarayonida protsessual ishtirokchilarning qatnashuvi dalillarni to'plash va



baholashning qonuniyligi hamda xolisligini ta'minlashda muhim kafolat vazifasini bajaradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi normalari guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va holislarning huquqiy maqomini belgilab bergan bo'lsa-da, ularni amaliyotda qo'llash jarayonida ayrim tashkiliy va protsessual muammolar mavjudligi aniqlandi.

Birinchidan, guvohlarning ko'rsatmalarini rasmiylashtirish va baholash jarayonida yagona metodik yondashuv yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Bu esa ayrim hollarda dalillarning ishonchliligini baholashda turlicha yondashuvlarga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, ekspertiza tayinlash masalalarida maxsus bilim talab etiladigan holatlarni aniqlash mezonlari aniq belgilab berilmaganligi sababli, ayrim tekshiruvlarda ekspert jalb etilmay qolishi yoki aksincha, zarur bo'lmagan holatlarda tayinlanishi mumkinligi aniqlandi.

Uchinchidan, mutaxassisni jalb etish amaliyotida uning protsessual maqomi bilan bog'liq ayrim noaniqliklar mavjud bo'lib, bu uning vakolatlari va javobgarligi chegaralarini belgilashda muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, tarjimon va holislarning ishtiroki soliq tekshiruvlarining shaffofligini ta'minlashda muhim omil ekani tasdiqlandi. Biroq ularni jalb etish tartibini yanada aniqroq reglamentlashtirish zarurati mavjud.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari soliq nazorati jarayonida protsessual ishtirokchilarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish lozimligini ko'rsatdi.

XULOSA.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq nazoratini samarali amalga oshirishda protsessual ishtirokchilarning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etadi. Guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va holislarning ishtiroki soliq tekshiruvlarining qonuniy, xolis va shaffof o'tkazilishini ta'minlovchi muhim protsessual kafolat hisoblanadi. Ularning faoliyati dalillarni to'plash, mustahkamlash va baholash jarayonining



ishonchliligini oshiradi hamda soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi huquqiy tartibga solish, xususan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi normalari mazkur ishtirokchilarning umumiy huquqiy maqomini belgilab bergan bo'lsa-da, ularni qo'llash amaliyotida ayrim noaniqlik va tashkiliy muammolar mavjud. Jumladan, guvoh ko'rsatmalarini baholash mezonlarini aniqlashtirish, ekspertiza tayinlash asoslarini takomillashtirish, mutaxassisning protsessual maqomini yanada ravshan belgilash, shuningdek tarjimon va holislarni jalb etish tartibini batafsil reglamentlashtirish zarur.

Shu bois soliq nazoratini takomillashtirish jarayonida protsessual normalarni yanada aniqlashtirish, amaliyot uchun yagona metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda ishtirokchilarning huquqiy madaniyatini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida soliq nazoratining samaradorligini oshirish, davlat fiskal manfaatlari va soliq to'lovchilarning huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan soliq nazoratini amalga oshirishda guvohning ishtiroki, ekspertiza, mutaxassisni jalb etish, tarjimonning va holislarning ishtirokini ta'minlashga qaratilgan quyidagi takliflarni ko'rsatish joiz.

Soliq tekshiruvlarida "xolislar" va "guvohlar" ishtirokini bosqichma-bosqich masofaviy video-fiksatsiya tizimiga almashtirish.

Soliq qo'mitasi qoshida mustaqil ekspertlar va mutaxassislarning yagona elektron reyting bazasini shakllantirish.

Davlat xaridari doirasida professional tarjimonlik agentliklari bilan doimiy shartnomalar tuzish tizimini tizimlashtirish.

Soliq nazorati tadbirlarida ishtirok etgan xolislar va guvohlar uchun sarflangan vaqti va xatarlarini kompensatsiya qilishning aniq tariflarini belgilash (hozirda bu mexanizm amaliyotda sust ishlaydi).



Barcha ishtirokchilar (guvoh, xolis, mutaxassis) bayonnomani elektron raqamli imzo (ERI) yoki Face-ID orqali joyida tasdiqlashi mumkin bo'lgan mobil ilova yaratish.

Soliq kodeksida ekspertiza o'tkazishning maksimal muddatlarini va bu davrda soliq tekshiruvi to'xtatib turilishining aniq chegaralarini belgilash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Huquq”, 2020.
2. Musayev B.M.”Soliq tizimi va nazorati”.–Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti, 2020.
3. Muradullayeva S.M. “Soliq nazoratini amalga oshirishning qiyosiy-huquqiy tahlili”.
4. A'zamov R.S. “Soliq nazoratini tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari”. Tadqiqotlar,2025.
5. Sayyora Valiyeva. “Soliq tizimini isloh qilishda soliq nazorati shakllari va uni takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024.
6. Simenko I.V., Bredikhina O.A. “Comparative analysis of the concept of tax control,” Vestnik of Institute of Economic Research, Vol. 25, 2022, 88–93. Soliq nazoratining kontseptsiyasi va qiyosiy yondashuvlar tahlili.
7. OECD. Tax Administration 2022: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. Paris, 2022, Soliq nazorati amaliyoti va xalqaro standartlar bo'yicha ma'lumotlar.

<https://orcid.org/0009-0006-1118-3465>